

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI

Qo‘ziboyev Umarbek Ulug‘bekovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

tayanch doktoranti

E-mail: umarbek.kuzibojev@urdu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan foydalanish holati tahlili yoritilgan. Shuningdek, transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan foydalanish holatini samarali tahlil qilish yuzasidan xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqa, mintaqa iqtisodiyoti, transport, infratuzilma, transport infratuzilmasi, holat, tahlil.

Аннотация

В статье представлен анализ состояния использования возможностей транспортной инфраструктуры в обеспечении устойчивого развития экономики нашей страны. Представлены выводы и предложения по эффективному анализу состояния использования возможностей транспортной инфраструктуры.

Ключевые слова: регион, региональная экономика, транспорт, инфраструктура, транспортная инфраструктура, состояние, анализ.

Abstract

This article provides an analysis of the state of use of transport infrastructure opportunities in the sustainable development of our country's economy. It also provides conclusions and suggestions for an effective analysis of the state of use of transport infrastructure opportunities.

Keywords: region, regional economy, transport, infrastructure, transport infrastructure, state, analysis.

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotini izchil va barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan oqilona foydalanish dolzarb vazifalardan biridir. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, modernizatsiya jarayonlari, xalqaro transport yo‘laklariga integratsiyalashish bo‘yicha tashabbuslar transport-kommunikatsiya tarmoqlarining yanada samarali ishlashi uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Avvalo, transport infratuzilmasi mamlakat iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanganligi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘shishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, temir yo‘l, avtomobil yo‘llari, havo transporti, metropoliten, logistika markazlari, multimodal tashish tizimlari va yuk terminallari infratuzilmasining yaxlit ishlashi ichki bozorning uzluksiz harakatini ta‘minlaydi hamda tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu borada respublikamizda transport tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro integratsiya darajasi yildan-

yilga ortib borayotgani iqtisodiy barqarorlik uchun mustahkam poydevor hozirlamoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan foydalanish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, bu borada mamlakatimizda logistikani, transport infratuzilmalarini rivojlantirish va xalqaro aloqalarni mustahkamlash uchun bir qator ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan [1]. Bu orqali transport infratuzilmasi holati, uning iqtisodiyot tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘liqligi, mavjud salohiyatidan foydalanish darajasi hamda mavjud muammolar chuqur tahlil qilinadi. Bu borada O‘zbekiston transport bozorida innovatsiyali logistika texnologiyalarining multimodal va intermodal tashuvlarni rivojlantirish barqarorligi va samaradorligiga ta’sir darajasini oshirish imkonini beradi [2]. Shu orqali transport holati tahlil qilinadi. Yana bir tadqiqotlarda esa transport turlarining ustunlik va kamchilik tomonlari hamda ularning tashqi savdo hajmidagi ulushlari tahlil qilinadi [3]. Ushbu jarayon transport tizimi holatini aks ettiradi. Davlatning transport tizimi barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda muhim rol o‘ynaydi. Eng mashhur transport turi avtomobil transporti bo‘lib, u xalqaro va ichki yuk va yo‘lovchi tashishni ta’minlaydi [4].

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishning milliy iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu borada yangi avtomobil yo‘llari, temir yo‘l liniyalari, logistika markazlari, aerodrom va aeroportlarning rekonstruksiya qilinishi natijasida yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshdi, ichki hamda xalqaro transport tizimining sifati yaxshilandi. Ushbu jarayon iqtisodiyotning eksport salohiyatini kengaytirish, tashqi savdo aylanmasini ko‘paytirish va xalqaro tranzitdan olinadigan daromadlarni oshirish imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan foydalanish holati tahlilini amalga oshirishda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon bozorlarida kechayotgan globallashuv jarayonlari fonida O‘zbekistonning geostrategik ahamiyati ham ortib bormoqda. Mamlakatning Markaziy Osiyoning markazida joylashgani esa xalqaro transport yo‘laklari kesishgan hudud bo‘lishi tranzit imkoniyatlari salohiyatini yanada kuchaytiradi. Xususan, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida transport-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, Yevropa–Osiyo transport koridorlarida faol ishtirok etish, multimodal transport xizmatlarini kengaytirish bo‘yicha belgilangan vazifalar iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston ushbu

yoʻnalishda mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish orqali katta tranzit daromadlari va yangi ish oʻrinlari yaratish imkoniyatiga ega.

Biroq, transport infratuzilmasidan foydalanish jarayonida mavjud salohiyat hali toʻliq ishga solinmagan. Jumladan, ayrim avtomobil yoʻllarining sifat darajasi pastligi, yuk tashish jarayonida keraksiz byurokratik tartib-taomillar mavjudligi, logistika xizmatlarining yetarlicha raqamlashtirilmaganligi hamda yuk tashuvchi korxonalarining texnik bazasi eskirgani kabi omillar transport tizimining toʻliq samaradorlik bilan ishlashiga toʻsqinlik qilmoqda. Bu esa iqtisodiyotning baʼzi tarmoqlarida transport xarajatlarining oshib ketishiga, logistika zanjirlarining uzilishiga va tashqi bozorlarga chiqishda raqobatbardoshlikning pasayishiga olib keladi.

Tahlil natijalari mamlakatda transport logistikasini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish zarurligini koʻrsatdi. Zamonaviy IT-yechimlar, jumladan, elektron joʻnatma tizimlari, onlayn logistika rejalashtirish platformalari, intellektual transport boshqaruvi dasturlari, multimodal tashishlarni yagona platforma orqali nazorat qilish tizimlari yuk harakatini optimallashtirishda muhim rol oʻynaydi. Raqamli transport tizimining joriy etilishi operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi hamda tashish jarayonining shaffofligi va tezkorligini oshiradi. Bu esa korxonalar faoliyatining samaradorligi va umumiy iqtisodiy oʻsish surʼatlariga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Mamlakatda transport infratuzilmasi yordamida hududlar oʻrtasidagi iqtisodiy farqlarni kamaytirish imkoniyati mavjud. Yangi yoʻllar va transport tarmoqlarining barpo etilishi uzoq hududlarni markaziy bozorlar bilan bogʻlaydi, qishloq hududlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning isteʼmolchilarga yetib borishini osonlashtiradi hamda mintaqalarning investitsion jozibadorligini kuchaytiradi. Bundan tashqari, transport tarmoqlarining yaxshilanishi aholi harakatchanligini oshirib, mehnat bozorining barqaror ishlashiga koʻmak beradi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar transport infratuzilmasining hududlar rivojlanishidagi roli yildan-yilga kuchayib borayotganini tasdiqladi.

Barqaror transport tizimi ekologik omillarni hisobga olgan holda rivojlantirilishi lozim. Oʻzbekiston transport sohasida ekologik xavfsizlikni taʼminlash, uglerod chiqindilarini kamaytirish va muqobil yoqilgʻida harakatlanuvchi transport vositalari ulushini oshirish boʻyicha bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektrobuslar parkini kengaytirish, quyosh energiyasida ishlovchi transport infratuzilmasini yaratish va ekologik toza yoʻl qoplamalaridan foydalanish kabi chora-tadbirlar ekologik barqarorlikka xizmat qiladi. Kelgusida “yashil transport tizimi” tamoyillarini keng joriy etish transport sohasining ekologik izini kamaytirib, xalqaro talablar bilan uygʻunlashishini taʼminlaydi.

Amalga oshirilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, transport infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanish muhim. Ayni paytda qator yirik avtomagistrallar, logistika markazlari va aeroportlar davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilinmoqda. Ushbu mexanizm investitsiya yukini kamaytiradi, transport tarmogʻiga xususiy kapitalni jalb etadi va xizmatlar

sifatini yaxshilaydi. Biroq, davlat-xususiy sheriklik loyihalari samaradorligini oshirish uchun huquqiy baza, risklarni taqsimlash mexanizmlari va uzoq muddatli moliyaviy kafolatlarni yanada takomillashtirish zarur.

Transport infratuzilmasidan samarali foydalanish mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, kimyo, metallurgiya, neft-gaz va boshqa sohalardagi mahsulotlarini jahon bozorlariga raqobatbardosh narxlarda yetkazib berish ko‘p jihatdan transport xarajatlarining maqbulligiga bog‘liq. Transport xarajatlarining kamayishi mahsulotning umumiy tannarxiga bevosita ta‘sir qiladi. Bu esa eksport hajmini oshiradi va milliy iqtisodiyotga valyuta tushumlarini ko‘paytiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, transport-logistika xarajatlarini 10–15 foizga qisqartirish orqali yillik eksport hajmini sezilarli darajada oshirish imkoniyati mavjud.

Transport infratuzilmasi rivoji ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sirga egaligi bilan ajralib turadi. Transport tizimining kengayishi natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi, aholining harakatchanligi ortadi, ijtimoiy xizmatlardan (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, savdo va madaniyat) foydalanish imkoniyatlari yaxshilanadi. Ayniqsa, qishloq hududlarining yirik shaharlar bilan bog‘lanishi aholi turmush darajasining oshishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Transport infratuzilmasining barqaror rivojlanishi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga hissa qo‘shadi. Bu borada mamlakatimizda 2010–2024-yillarda amalga oshirilgan transport xizmatlari hajmi tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekistonda 2010–2024-yillarda amalga oshirilgan transport xizmatlari hajmi, mlrd.so‘mda [5]

№	Hududlar nomi	2010-y.	2012-y.	2014-y.	2016-y.	2018-y.	2020-y.	2022-y.	2024-y.
	O‘zbekiston Respublikasi	10524,4	16498,8	23781	30617,8	44159,4	53662,9	83985,6	146736,3
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	231	495,7	725,8	973,3	1292,8	1673,4	2867	4077,1
2	Andijon viloyati	395,9	673,5	1122	1697,8	1906,6	2479,7	3589,9	6473,3
3	Buxoro viloyati	391,4	622,5	1018,8	1456,4	1771,5	2238,4	3298,1	5686,2
4	Jizzax viloyati	118,1	221,1	354,3	518,9	611,9	826,8	1182	2140,3
5	Qashqadaryo viloyati	349,2	575,9	976,9	1431,3	1636,6	2171,7	3405,2	5703
6	Navoiy viloyati	188,7	305,8	411,7	617,3	801,6	998,5	1541,3	3064,2
7	Namangan viloyati	224,5	383	629,3	1053	1246	1632,1	2624,7	4802,2
8	Samarqand viloyati	685	1062	1692,1	2369,2	2764	3371,1	5383,4	10080,1
9	Surxondaryo viloyati	234,3	383,6	622,3	870,2	996,6	1252,6	1922	3096,7
10	Sirdaryo viloyati	93	151,1	217,5	322,4	398,5	526,9	646,8	1113,5
11	Toshkent viloyati	848,1	1184,6	1830,5	2763,2	3042	4018,4	5930,2	10374,6
12	Farg‘ona viloyati	421,4	745,7	1216,8	1822,8	2088,8	2664,3	4190,1	7184,6
13	Xorazm viloyati	354,2	454,2	712,9	1085	1241,9	1568,3	2432	4251,9
14	Toshkent shahri	1454,9	2280	3301,3	4295,5	6502,6	8114,7	14363	29153,6

1-jadvalga asosan, 2010–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar izchil va barqaror o‘sib borgan. 2010-yilda umumiy hajm 10,5 trln. so‘m atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 146,7 trln. so‘mga

yetgan. Bu esa 14 yil ichida o'sish 14 baravardan ko'p bo'lganini ko'rsatadi. O'sishning bunday tezligi iqtisodiy faollik, investitsiyalar, infratuzilma kengayishi va hududiy rivojlanish sur'atlarining kuchayganidan dalolat beradi.

Hududlar kesimidagi umumiy tendensiyalarni tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri, Samarqand, Toshkent viloyati, Farg'ona, Andijon va Qashqadaryo viloyatlari eng yuqori sur'atda o'sish qayd etgan hududlar hisoblanadi. 2024-yilga kelib, Toshkent shahrida ko'rsatkich 29,1 trln. so'm, Samarqandda 10 trln. so'm, Toshkent viloyatida 10,3 trln. so'mga yetgan. Nisbatan past boshlang'ich ko'rsatkichlardan boshlangan hududlar esa Sirdaryo, Jizzax, Xorazm va Navoiy viloyatlari muntazam o'sishga erishgan bo'lib, 14 yil ichida 4–6 baravar o'sish kuzatilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida ham barqaror o'sish qayd etilgan. Ya'ni, 2010-yildagi 231 mlrd. so'mdan 2024-yilda 4,07 trln. so'mga yetgan yoki taxminan 17,5 baravar o'sishga ega bo'lgan.

Eng muhim tendensiyalarga to'xtaladigan bo'lsak, barcha hududlarda o'sish barqaror ekanligi ko'rinadi. Birorta hududda pasayish yoki turg'unlik kuzatilmaydi. Bu esa iqtisodiy faollikning umumrespublika bo'yicha kengayganini bildiradi. Yirik sanoat va xizmat ko'rsatish markazlari jadal o'syapti. Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona vodiysi hududlari yuqori iqtisodiy potensialga ega bo'lganligi sababli boshqa hududlarga nisbatan tezroq o'sish ko'rsatmoqda. Hududlar o'rtasidagi tafovut saqlanib qolgan. Eng yuqori va eng past natijalar orasidagi farq 2010-yilda 6 baravar bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda esa ushbu tafovut yuqori bo'lib qolmoqda. Masalan, Toshkent shahri 29,1 trln. so'mga teng bo'lgan bo'lsa-da, Sirdaryo viloyati 1,1 trln. so'mni tashkil etgan.

Umumiy natija sifatida shuni aytish mumkinki, 2010–2024-yillarda respublikaning barcha hududlarida iqtisodiy ko'rsatkichlar yuqori sur'atda oshgan. Eng yirik o'sishga poytaxtda, iqtisodiy markazlarda va aholisi zich bo'lgan hududlarda erishilgan. Past boshlang'ich ko'rsatkichlarga ega bo'lgan hududlar ham izchil o'sish bilan ajralib turadi. Bu holat mamlakatda hududlar iqtisodiyotining keng qamrovli va barqaror rivojlanayotganini yaqqol ko'rsatadi.

O'zbekiston transport infratuzilmasi bo'yicha ko'rsatkichlar 2010–2024-yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyish qiladi. O'sishning asosiy drayverlari bo'lib yo'llarni rekonstruksiya qilish, temir yo'l modernizatsiyasi, aeroportlar yangilanishi, investitsiya hajmining oshishi va logistika bozorini rivojlantirish kabi yo'nalishlar hisoblanadi. Bu borada Toshkent shahri, Buxoro, Farg'ona, Samarqand va Toshkent viloyati eng rivojlangan hududlar sifatida ajralib turadi. Sirdaryo viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Namangan viloyatining ko'rsatkichlari esa nisbatan past, biroq o'sish sur'atlari yuqori qiymatni tashkil etadi. 2021–2024-yillarda barcha hududlarda sezilarli o'sish mavjud. Bu esa transport infratuzilmasiga qaratilgan davlat dasturlari samaradorligini ko'rsatadi.

Yuk tashish hajmining doimiy o'sishi 2020-yildan 2024-yilga nisbatan 11 foizga o'sishga erishilganini ko'rsatadi. Bu esa transport infratuzilmasining kengaygani, logistika xizmatlari va iqtisodiy faollik oshganini aks ettiradi. Temir yo'l va avtomobil transportining kombinatsiyasi iqtisodiyotning turli tarmoqlarini birlashtirib, ichki va

tranzit yuklar oqimini ta'minlaydi. Tranzit yuklar hajmining yillik rasmiy statistikasi mavjud bo'lishi mamlakatimizning Markaziy Osiyoda transport-ko'prik sifatidagi roli va salohiyatini tasdiqlaydi. Yuk turlarining tarkibi resurs va energiya xom ashyosining yetkazib berilishi hamda sanoat logistikasi uchun zarur infratuzilma ahamiyatini ko'rsatadi. Yo'lovchi tashish hajmi va transport xizmatlari ko'rsatkichlari transport tizimining aholiga xizmat ko'rsatishdagi roli va ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida avtomobil, temir yo'l, havo, quvur va multimodal transport tarmoqlarining barqaror ishlashi natijasida yuk va yo'lovchi tashish hajmi yil sayin oshib bormoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakat bo'yicha jami yuk tashish hajmi 1,52 milliard tonnani tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan qariyb 11 foizga yuqori ulushni tashkil etadi. Yuk tashishning 92 foizdan ortig'i avtomobil transporti hissasiga to'g'ri kelayotgani hududlararo bog'liqlik, eksport-import operatsiyalarining faollashuvi, qayta ishlash sanoati va xizmatlar sektori rivoji bilan bevosita bog'liq. Temir yo'l transporti esa strategik yuklarni, ya'ni neft mahsulotlari, ko'mir, metall rudalari, qurilish materiallari va mineral o'g'itlarni tashishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu borada 2024-yilda temir yo'l orqali 73,9 mln. tonna yuk tashilgani tarmoqning iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamligini tasdiqlaydi.

Transport infratuzilmasining rivojlanishi hududiy iqtisodiy o'sishning bosh omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Hududlar kesimidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2010–2024-yillar davomida respublikaning barcha hududlarida transportga bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar barqaror o'sib kelgan. Masalan, Toshkent shahrida ko'rsatkichlar 14 yil davomida qariyb 20 baravarga, Samarqand va Toshkent viloyatlarida esa 10 baravarga yaqin oshgan. Mazkur natijalar infratuzilmaning kengayishi, yangi yo'llar qurilishi, logistika markazlari, yuk terminallari va zamonaviy transport xizmatlarining jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonning geostrategik joylashuvi, ya'ni yirik xalqaro transport yo'laklarining chorrahasida joylashgani bevosita tranzit salohiyatidan samarali foydalanish imkonini bermoqda. 2023–2024-yillarda mamlakat hududi orqali tranzit yuklar hajmi yildan-yilga oshib, 11 mln. tonnadan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgani mintaqaviy va global transport tizimidagi raqobatbardoshlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu borada multimodal transport xizmatlarining kengayishi, logistika markazlari sonining ortishi va bojxona jarayonlarining raqamlashtirilishi tranzit yuk oqimini tezlashtirmoqda. Biroq transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan foydalanish hali to'liq darajada emas. Xususan, ayrim avtomobil yo'llarining sifat darajasi pastligi, yuk tashish jarayonida byurokratik kechikishlar, transport parkining eskirishi va logistika xizmatlarining yetarlicha raqamlashtirilmaganligi tizim samaradorligini cheklayotgan omillar sifatida saqlanib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy o'sish, hududlararo integratsiya va eksport salohiyatini oshirishda muhim strategik omildir. 2010–2024-yillar davomida transport xizmatlari hajmining barcha hududlarda barqaror o'sib borishi infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar, modernizatsiya jarayonlari

va davlat dasturlarining samaradorligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, transport-logistika tizimining kengayishi ishlab chiqarish va xizmatlar sektori faolligini oshirib, ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan.

Shu bilan birga, transport infratuzilmasidan foydalanishda mavjud salohiyatni to‘liq ishga solish uchun bir qator tizimli masalalarni hal etish zarur. Xususan, yo‘l sifati, logistika xizmatlarini raqamlashtirish, transport parkini yangilash, byurokratik tartib-taomillarni qisqartirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yanada takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Transport tizimini innovatsion, ekologik barqaror va raqamli rivojlanish yo‘liga o‘tkazish mamlakatning tranzit salohiyatini kuchaytirib, hududiy va milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karriyeva B.K. O‘zbekistonda logistika va transport infratuzilmalarini rivojlantirish yo‘nalishlari. // Academic research in educational sciences, Volume2, Issue4, 2021. ISSN: 2181-1385, Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021, 5.723

2. Tursunov O.B. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida transport infratuzilmasi rivojlantirish va transport xizmatlarining boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. // Journal of Advanced Research and Stability, Volume03, Issue05, May, 2023. - 183 b.

3. Bo‘ribekova G. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda transport tizimining o‘rni. // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, Jild2, №5, 2024. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss5-pp53-59>

4. Холмаматов Д.Х. Состояние и анализ развития инфраструктуры транспортных услуг в Узбекистане. // "Экономика и социум" №12(115)-2 2023. - с. 1035.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**